



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**SURXONDARYO VILOYATI HOKIMINING**  
**Q A R O R I**

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 190100, tel.: (+99876) 224-00-15, surxon@exat.uz, gov@sdv.uz

2021 - yil 14 - oktabr

164-8-0-Q/21

Surxondaryo viloyati hokimligi

**Viloyat hududlarida uloq-ko‘pkari va boshqa milliy ot sporti o‘yinlarini o‘tkazish uchun  
yer maydonlarini belgilash to‘g‘risida**

Viloyatimizda milliy merosimizning ajralmas qismi bo‘lgan uloq-ko‘pkari va boshqa milliy ot sporti o‘yinlarini o‘tkazishni ko‘paytirish hamda aholini ot sporti o‘yinlariga keng jalb etish, viloyatimizda ot sporti o‘yin turlarini yanada rivojlantirish maqsadida

**QAROR QILAMAN:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chavandozlar maktablari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 5-avgustdagi PQ-5212-son qarorida belgilab berilgan topshiriqlar rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tegishli tumanlar hokimliklarining viloyat hokimligiga yuborgan xatlariga asosan tumanlarda uloq-ko‘pkari va boshqa milliy ot sporti o‘yinlarini o‘tkazish uchun maqbul yer maydonlari ilovaga asosan tasdiqlansin.

3. Uloq-ko‘pkari va boshqa milliy ot sporti o‘yinlarini o‘tkazish uchun tasdiqlangan yer maydonlarida Mustaqillik, Navro‘z va boshqa bayramlarda hamda to‘y-hashamlarda uloq-ko‘pkari va milliy ot sporti o‘yinlarini o‘tkazish tavsiya etilsin.

4. Turizm va sport bosh boshqarmasi (A.Arabov) hududlarda o‘tkaziladigan uloq-ko‘pkari va boshqa milliy ot sporti o‘yinlarini xalqaro darajada va respublika miqyosida targ‘ibotini tashkil etsin.

5. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalari agentligi viloyat boshqarmasi (Z.To‘rayev), Surxondaryo televideniyesi (B.Mingboyev), “Surxon tongi” va “Заря Сурхана” gazetalarini birlashgan tahririyati (S.Norqobilov)ga ushbu qaror bilan uloq-ko‘pkari va boshqa milliy ot sporti o‘yinlari o‘tkaziladigan hududlar belgilanganligini hamda hududlarda o‘tkaziladigan uloq-ko‘pkari va boshqa milliy ot sporti o‘yinlari musobaqalarini ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ib qilish tavsiya etilsin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari J.To‘rayev zimmasiga yuklansin.

**Surxondaryo viloyati hokimi**



**Bobolov T.A.**

Сурхондарё вилоят ҳокимининг  
2021 йил 14 октябрдаги  
164-8-0-Q/21-сон қарорига  
1-илова

### Tumanlarda uloq-ko'pkari va boshqa milliy ot sport o'yinlarini o'tkazish uchun belgilangan yer maydonlari

№	Hudud nomi	Mahalla nomi	Ajratilgan yer maydoni (gektar)	Yer toifasi	Yer maydonining egasi
1.	Angor tumani	“Qo'shtegirmon” va “Dehqonbirlashuv” mahallalari	11	Yaylov	Tuman hokimligi
2.	Bandixon tumani	“Saroy” mahallasi	8	Yaylov	Tuman hokimligi
3.	Boysun tumani	“Dashtig'oz” mahallasi	6	Yaylov	“Qurbonali Amin” f/x
4.	Denov tumani	“Qo'zichoqli” mahallasi	3	Yaylov	Tuman hokimligi
5.	Jarqo'rg'on tumani	“Qorayontoq” mahallasi	10	Yaylov	Tuman hokimligi
6.	Qiziriq tumani	“Xalqobod” mahallasi	9	Yaylov	Tuman hokimligi
7.	Qumqurg'on tumani	“G'alaba” mahallasi	30	Yaylov	Tuman hokimligi
8.	Oltinsoy tumani	“Qorliq” mahallasi	5	Yaylov	Tuman hokimligi
9.	Uzun tumani	“Kichik jonchekka” mahallasi	5	Yaylov	Tuman hokimligi
10.	Muzrabot tumani	“Tong yulduzi” mahallasi	33	Yaylov	Tuman hokimligi
11.	Sariosiyo tumani	“Bog'iston” mahallasi	8	Yaylov	Tuman hokimligi
12.	Termiz tumani	“Yangiobod” mahallasi	64,6	Yaylov	Milliy gvardiya viloyat boshqarmasi
13.	Sho'rchi tumani	“Laylaxona” mahallasi	7	Yaylov	Tuman hokimligi

14.	Sherobod tumani	“Qorabog‘” mahallasi	15	Yaylov	Tuman hokimligi
<b>Jami</b>			<b>156,6</b>		